

# O'qish savodxonligi

4

I qism



**novda**  
edutainment

M.E.Toirova

# O'qish savodxonligi

## 4-sinf

### I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik  
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



**novda**  
edutainment

Toshkent – 2023



UO'K 808.545(075.3)  
KBK 74.202.5ya72  
T61

M.E.Toirova  
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining  
4-sinfi uchun darslik, I qism. / M.E.Toirova – Toshkent: "Novda  
Edutainment", 2023. – 80 b.

#### Taqrizchilar:

Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.M.Umarova – Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

#### Shartli belgilar:



Yodda  
tuting



Guruh bo'lib  
ishlang



Savollarga  
javob bering



Diqqat bilan  
o'qing



Izohli  
lug'at



Tinglang



Bu qiziq!



Topshiriqni  
bajaring



Uyga  
vazifa

1-dars. Yagonadir Vatanning sening!.....	6
2-dars. Buyuk mehring.....	11
3-dars. Sayroqi qushcha.....	15
4-dars. Vatan yoshlari.....	20
5-dars. Marvarid.....	23
6-dars. Toshbag'ir.....	29
7-dars. Qarg'a va paxta.....	34
8-dars. Ona tilim.....	41
9-dars. Tabiat darsi.....	44
Ona tili darsi.....	46
10-dars. Baxtimizning timsoli.....	48
11-dars. Qanot qoqqan orzular.....	52
12-dars. Yetti xazinaning biri.....	57
13-dars. Hunarli mingni yengar.....	64
14-dars. Kitob va boylik.....	69
15-dars. Fazoga sayr.....	72



ISBN 978-9943-9696-8-1

© M.E.Toirova  
© "Novda Edutainment", 2023



## Aziz o'quvchi!

Siz ayni o'qiydigan, izlanadigan, hayot, mehr, Vatan, ota-onaga muhabbat haqida yorqin tasavvurga ega bo'ladigan yoshdasiz. Har kuningiz, har oningiz zavq-u shavq, sarguzashtlarga to'la. Hayotingizning yanada rangli, yanada jozibali bo'lishi uchun kitob birlamchi do'stingiz bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mo'jaz kitob ham vaqtingizni samarali o'tkazishga oz bo'lsa-da hissa qo'shsa, biz bundan behad shod bo'lamiz!

Kitobdan o'rin olgan Vatan va tabiat go'zalliklari madhi, ota-onaga, yor-birodarlarga mehr-muruvvat, inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibati tasvirlangan ibratga to'la lavhalar, ertaklar-u rivoyatlar, maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar Sizni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi (PIRLS) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan







## Xurshid Davron



Xurshid Davron – O'zbekiston xalq shoiri, dramaturg, tarixchi, yozuvchi va tarjimon. "Uchib boraman qushlar bilan", "Qadrdon quyosh", "Shahardagi olma daraxti", "To'marisning ko'zlari", "Bahordan bir kun oldin", "Qaqnus", "Bolalikning ovozi" kabi she'riy to'plamlar muallifi. She'rlarida

voqelikka yangicha nigoh bilan qarovchi, o'zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatuvchi zukko shoir sifatida gavdalanadi.

**Siz Vatan deganda nimani tushunasiz?**



- Vatan – bu kindik qonimiz to'kilgan tuproq.
- Vatan – bu beshigimiz, ko'cha-yu mahallamiz, uyimiz, turar joyimiz.
- Vatan – bu muqaddas ona tilimiz.
- Vatan – bu ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar, noz-u ne'matlar.



## Yagonadir Vataning sening!

*Xurshid Davron*

### Vatan o'zi nima?

Donishmandlardan biri: "Vatan – bu sening kindik qoning tomgan tuproq", – desa, ikkinchisi: "Vatan – bu sen suygan odamlar manzili!" – deydi. Boshqasi: "Vatan – millat xotirasi", – deb zavqlanadi. Biz Vatan kalimasiga ne-ne so'zlarni qo'shib, aziz qadriyatlarga nom topamiz: Vatan tuprog'i, Vatan tuyg'usi, Vatan tarixi, Vatan kelajagi...

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa – ona qishloq dalalariga, ko'klam chog'ida lolazorga aylangan qiradirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog'larga, hatto yantog'-u saksovuldan boshqa giyoh unmagani dasht-u sahrolarga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi.

Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga bo'lgan mehr bilan qo'shib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtlarini sog'inadi. Dov-daraxtlar o'z yurtlarini qo'msaydi. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi...

Yillar o'tib, bog' o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlabibdi.

Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lib, u yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-birlaridan ancha olisda bo'lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi. Ko'rdingizmi, aqlimiz anglashga ojiz. Bu sirli aloqa Vatan tuyg'usi bilangina izohlanishi mumkin.

Vatan – ona kabi yagona! Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram. Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir!



1. "Vatan" so'ziga ta'rif bering.
2. "Istiqlol" so'zida nimalar mujassam?
3. "Qadrlash" so'zining ma'nosini qanday tushunasiz?
4. Jahon davlatlari o'rtasidagi aloqa deganda nimani tushunasiz?
5. Amerikada nima uchun daraxtlar qurib qoldi?
6. O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishganini qaysi davlatlar tan olgan?



bo'y cho'zmoq – o'smoq  
yoqa ushlamoq – hayratlanmoq  
qurg'oqchilik – suvsizlik  
mukarram – qadrlı







Maqol va hikmatli so'zlarni o'qing.  
Shu mazmunga ega maqollar topib, qatorni davom ettiring.

1. Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.
2. Vatan gadosi – kafan gadosi.
3. Vatanning tinch – sen tinch.
4. O'z uyim – o'lan to'shagim.
5. Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir.
6. Vatanparvarlik – bobolardan qolgan meros.
7. Ona yurt – oltin beshik.
8. O'z diyorini gullatganning baxti gullaydi.
9. Har bir nihol o'ziga xos tuproqda ildiz otadi.
10. Vatan uchun qurbon bo'lganlarning xoki muqaddasdir.



"Yangi O'zbekiston – yangi maqsad sari rivojlanish" mavzusida matn tuzib, so'zlab berishga tayyorlaning.




## Nazarmat Egamnazarov

Nazarmat Egamnazarov – shoir, jurnalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. "Yoshlik zavqi", "Vatan ishq", "Yashil dalalar", "Sir bo'yi – nur bo'yi", "Tog'dagi gulxanlar", "Nay sadosi", "Shahrimiz bolalari", "Bahor qo'shig'i", "Mangu olov" kabi she'riy to'plamlar muallifi.

Ko'plab she'rlari qo'shiq bo'lgan. "Yurakdagi o'q" dostoni va "Sayyod jasorati" qissasi Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan.



"Vatan" arab tilidan olingan so'z bo'lib, "tug'ilgan makon" degan ma'noni anglatadi. Bizning Vatanimiz mustaqil O'zbekistondir. "Mustaqillik" so'zi ham arab tilidan olingan. U "erkin, ozod, qaram bo'lmagan" kabi ma'nolarni bildiradi. Inson yoki biror davlatning boshqalarga qaram emas, erkin bo'lishi, o'z yo'lini o'zi tanlashi mustaqillikdir.





## Buyuk mehring

*Nazarmat Egamnazarov*

O'zbekim, o'zligim, hayotim, borim,  
Munavvar olamda suyuk ko'rking bor,  
Turkiy el so'zligim, ona diyorim,  
Dillarda yangragan buyuk mehring bor.

Temurbek qadami senda ko'rinur,  
Muazzam azmingni sezmay bo'lurmi?  
Navoiy g'azali dilrabo erur,  
Onalik mehringni sevmay bo'lurmi?

Osiyo bag'rida tabarruk joying,  
Olisdir tarixing, kechgan yo'ling ham.  
Dunyoga havasli gulshan chiroying,  
Xotirda to'siqli kechmishlaring ham.

O'zbekim, o'zligim, hayotim, borim,  
Munavvar olamda suyuk ko'rking bor,  
Turkiy el so'zligim, ona diyorim,  
Dillarda yangragan buyuk mehring bor.

Sen bizga istiqlol, joni jahonsan,  
Erking-chun qanchalar qon to'kmaganmiz.  
Bag'ri keng, o'z so'zli O'zbekistonsan,  
O'zgarlar oldida bosh egmaganmiz.

Sen dilda qo'shiqsan, elga nur madhing,  
O'zbekim, o'zligim, hayotim, borim.  
Jahonga namoyon qudrat-u ko'rking,  
Turkiy el so'zligim, ona diyorim,  
Yerlari muqaddas O'zbekistonsan.



1. She'rdagi misralar oxirida takrorlanib kelayotgan so'zlarni belgilang.
2. Misralar oxiridagi ohangdosh so'zlarni toping.
3. She'rda qaysi tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan?
4. "Jahonga namoyon qudrat-u ko'rking" satrida shoir aynan qaysi holatlarni nazarda tutgan, deb o'ylaysiz?
5. Mustaqil O'zbekistonni madh etuvchi qanday so'zlardan foydalanilgan?
6. She'rga mos kuy topishga harakat qiling.





munavvar – nurli, yorug'  
muazzam azming – ulug' qaroring  
madh – maqtov  
istiqlol – mustaqillik, erk



Quyidagi rasmlardan she'rga mos bo'lgan va mos bo'lmaganlarini ajrating. Javobingizni izohlang.

1




2



3



4



"Yurtim uchun yangi g'oya" mavzusida suhbat quring. Har bir guruh o'zining yangi g'oyasini ishlab chiqsin.



She'rni yod oling.

## Zamira Ibrohimova

Zamira Ibrohimovanning qator hikoya va ertaklari gazeta va jurnallarda, "Chashma", "Uyqu nega xafa bo'ldi", "Tish qurti haqida ertak" va "Gulbahorning do'stlari" kabi asarlari kitob holida chop etilgan.

Uning "Kichkintoylarni Amir Temur hayoti va faoliyati bilan tanishtirish", "Kichkintoy doston tinglamoqda..." kabi maqolalari jurnallarda e'lon qilingan.



Chustiy qalamiga mansub bo'lgan quyidagi hikmatli so'zni izohlang.

Mehr ko'rsat, kiray desang dillarga,  
Mehrsizlik o'zingni ham qaqshatar.





## Sayroqi qushcha

Zamira Ibrohimova

Bugun Xosiyatxonning dadasi qafasda sayroqi qush olib keldi. Xosiyatxon singlisi Hidoyatbonu bilan qushchani ko'rib, quvonib ketishdi. So'ng qafas yoniga kelib, uni tomosha qila boshladi. Qushcha chiroyli, uning mayin patlari sariq, jajji qanotlarining uchlari oq oppoq edi. Qushchani harakatlarini kuzatib turgan Hidoyatbonu:

- Opa, qushcha nega qo'rquyapti? – deb so'radi.
- Sen ham bir o'zing begona odamlar uyiga kirsang qo'rqasan-ku! Shunga qushcha ham qo'rquyapti.
- Voy, unda biz begonamizmi? – hayratlanib so'radi Hidoyatbonu.

– Ha, u bizni hech qachon ko'rmagan, shu sababli bizni tanimaydi, – dedi so'zlarini dona-dona qilib Xosiyatxon.

Opa-singil qushchani yana biroz tomosha qilishdi. Qushcha sakrashda davom etardi.

– Opajon, keling, unga eng chiroyli o'yinchog'imizni beramiz.

– Qushcha o'yinchoq o'ynamaydi.

– Nima bo'пти, u bilan o'ynaymiz. Keyin qushchaga begona bo'lmaymiz, – dedi sevinib Hidoyatbonu.

– Yo'o'q... Kel, yaxshisi qafasga daraxt shoxlaridan o'rnatamiz. Qushcha daraxtzorda uchib yurgandek maza qilib yashaydi, – javob berdi Xosiyatxon singlisiga qarab.

– Vuyy, qanday yaxshi! – Hidoyatbonu chapak chalib yubordi.

Opa-singil birpasda shox-shabba yig'ib kelishdi. Nilufar opa qizlariga yordam berdi. Ular ayri shoxlardan uchtasini qafas ichiga tikka qilib qo'yishdi. Endi qafasning ichi shinamgina daraxtzorga aylandi. Xosiyatxon qushchani idishiga suv quydi. Hidoyatbonu esa ikkinchi idishchani tariq bilan to'ldirdi. Ammo qushcha hali ham shoxdan shoxga pitirlab sakrardi.

– Oyijon, bu qushcha chumchuqmi? – so'radi Xosiyatxon.

– Yo'q, bolajonim, bu – kanareyka. U juda yoqimli sayraydi.

– Unga daraxtzor yoqdimikin?



– Menimcha, sizlar mehr bilan yasagan kichkina daraxtzor qushchaga juda yoqqan bo'lsa kerak, – dedi onasi.

– U hali ham qo'rqyapti-ku... – dedi Hidoyatbonu.

– Qushcha yangi joyga o'rgansa, sizlarga bir sayrab beradiki, qoyil qolasiz.

Ertasiga kutilmaganda qushcha jarangdor ovozda sayrab yubordi.

– O'o', qushcha juda sayroqi ekan-ku! Ovozi uyni to'ldirib yubordi-ya, – hayratlandi dadasi.

– Qushlarning sayrashida hikmat bor. Ular tinchlik-omonlik, mehr-oqibat, qut-baraka bor joyda shukrona aytib sayraydi, – dedi buvisi jilmayib.



1. Xosiyatxonning dadasi nima olib keldi?
2. Nima uchun qushcha qafasda tinmay sakray boshladi?
3. Opa-singillar qushlarga qanday g'amxo'rlik ko'rsatishdi?
4. Qushlarning sayrashida qanday hikmat bor ekan?
5. Hikoyadan kanareyka qushi haqida qanday ma'lumotlarni bilib oldingiz?



“Qushlarni ko'paytirish” mavzusida suhbatlashing. Buning uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida o'ylang va reja tuzing.



Topishmoqlar javobini toping.

– Sayrab tursam suyarlar,  
Sayramasam so'yarlar.  
Tushmayin deb qoshiqqa,  
Zo'r beraman qo'shiqqa.



– “To'q-to'q” tumshuq urganim –  
Daraxtni qo'rganim.  
Davolayman mo'rtini,  
Tushiraman qurtini.



– Odamlarning odati,  
O'xshar qiziq jumboqqa:  
Yaqin yo'latishmaydi,  
O'zim ekkan yong'oqqa.



#### Vatan mehri (ertak)

1. Ertakdagi boshqa mamlakatlarga yurish qilmoqchi bo'lgan podshoh qanday yo'l tutar ekan?
2. Birinchi va ikkinchi askar ta'riflagan mamlakat haqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
3. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.

## Azim Suyun



Azim Suyun – O'zbekiston xalq shoiri, o'zbek zamonaviy adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan atoqli namoyanda. Uning "Men sizni sevaman", "Yetti kitob" nomli kitoblari, "Sarbadorlar" tragediyasi, "O'zbekiston", "Zamin taqdiri", "Bir

tomchi suv dengizga aylangan kecha va yoki imorat kabi dostonlari kitobxonlar orasida mashhur bo'lgan.



Hikmatli so'zni o'qing va ma'nosini izohlang.

Aql ulug'likka etadi payvand,  
Aqlsizning doim oyog'ida band.

*Abulqosim Firdavsiy*



## Vatan yoshlari

*Azim Suyun*

Biz o'zbek yoshlari, Vatan yoshlari,  
Vatan taqdiriga taqdiridosh nasl.  
Millatning bir jon-u bir tan yoshlari,  
Buyuk kelajakka daxldor, mas'ul!  
Mardona-mardona tashlaylik qadam,  
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!

Ota-bobolardan jasorat meros,  
Barhayot shonlari, ular kimniki?  
Nomusi, vijdoni, e'tiqod-ixlos,  
Barchasi bizniki, barchamizniki!  
Mardona-mardona tashlaylik qadam,  
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!

Ona O'zbekiston yo'li porloq, oq,  
O, uning ertasi o'zimizdadir.  
Abadiy porlasin muqaddas bayroq,  
El-yurtga qo'limiz ko'ksimizdadir!  
Mardona-mardona tashlaylik qadam,  
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!



nasl – avlod  
daxldor – egatik qilmoq, tegishli  
mas'ul – javobgar  
abadiy – umrbod





1. She'ni o'qiganda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ldi?
2. She'rdagi asosiy mazmuni qisqa matn orqali izohlab bering.
3. She'rdan sizga mazmuni tushunarsiz bo'lgan so'zlarni ajrating va izohli lug'at yordamida ma'nosini bilib oling.
4. "Uning ertasi o'zimizdadir" misrasini qayta o'qing va vatanning ertasiga qanday hissa qo'sha olishingiz haqida fikrlang.
5. Vatan ravnaqi uchun nimalar qilgan bo'lardingiz?



Maqollarni yod oling va ma'nosini izohlang.

1. Vatanga falokat – o'zingga halokat.
2. Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.
3. Vatanisiz inson – kuysiz bulbul.



She'ni yod oling.




Savollarga javob bering.

Siz marvarid nima ekanligini bilasizmi?  
Uni qayerlarda uchratish mumkin?  
Zargarlar marvariddan qanday maqsadda foydalanadi?



Quyidagi rasmlarni ta'riflang. Ular orasidan marvarid tasvirlanganini toping.





## Marvarid

Meri Joslin



Dengiz bo'yida boy hamda kambag'al bolalar barchasi birgalikda o'ynashar edi.

Bir kuni ular suvga chuqurroq sho'ng'ish uchun dengizning o'rtarog'iga borishdi. "Men topgan narsaga qarang!" – deb baqirdi bir bola. "Bu marvarid, – dedi boshqasi, – u judayam chiroyli". Bolalar uni ko'rish uchun yig'ildilar. Ular marvaridning naqadar chiroyli va yorqinligini ko'rib, uni ushlab ko'rgilari kelardi. Ammo buni so'rashga hech kim jur'at eta olmadi...

"Uni olsam bo'ladimi? Ha, u chindan ham chiroyli ekan". Bu birinchi bo'lib gapirgan bola edi.

"Bu haqiqatdan ham Joshniki. U topdi", – dedi qizlardan biri.

"Ruben, marvaridni sen olaqol, – dedi Josh. – Chunki u senga judayam yoqib qoldi". O'sha kundan boshlab, bolalar Rubenni kamroq ko'radigan bo'lishdi. Ular tashqarida, toza havoda o'ynayotgan paytda Ruben ichkaridan chiqmay, marvaridlar haqida ma'lumotlar o'rganish bilan mashg'ul bo'lardi. U dengiz chig'anoqlari ichida marvaridlar qanday hosil bo'lishini bilib oldi. Oila a'zolari undan qanday sovg'a olishni orzu qilayotganini so'rashganida, u doim marvaridlari bo'lishini xohlashini aytardi. "Men katta bo'lsam, marvarid savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor bo'laman", – derdi u.

Kun kelib shunday bo'ldi ham. Ruben do'stlari bilan xayrlashib, bolaligi o'tgan uyini, dengiz yaqinidagi ona shahrini tark etib, marvarid savdolari bo'ladigan katta shaharlarga jo'nab ketdi. O'zidagi mayda marvaridlarni katta, bejirim marvaridga almashtirdi. Shundan so'ng u baliqchilar to'r tashlab ov qiladigan okean qirg'og'iga bordi va yangi marvaridlar topish maqsadida chig'anoqlar izlashga kirishdi. Nihoyat kattagina, dumaloq bir marvaridni topib oldi.

Ruben dengizning eng sara marvaridlar topish mumkin bo'lgan yerlarigacha sayohat qildi, u yerlarda suvning tubi ko'pincha kumush va pushti rangda tovlanib turardi. Vaqtlar o'tib, u badavlat odamga aylandi. Undan marvarid xarid qilish uchun dunyoning turli tomonlaridan savdogarlar tashrif buyurishardi.



Biroq Ruben boyib ketgan bo'lsa ham, baxtli emasdi. U borgan sari o'z bolaligi o'tgan dengiz bo'yidagi shaharchani ko'p eslab, sog'ina boshladi. Ayniqsa, birinchi topgan marvaridini unga hadya qilib yuborgan eski do'sti Josh naqadar saxiy bo'lganini qayta-qayta yodga olardi.

Kunlarning birida: "Ruben! – degan ovoz eshitildi. – Seni ko'rganimdan xursandman!" U dengiz sohilida farzandlari bilan birga o'ynab yurgan Josh edi. Ruben do'stini uchratganidan juda baxtiyor bo'ldi, oradan ko'p yillar o'tgan, uzoq yillar ko'rishmagan bo'lsalar ham, u Josh bilan soatlab suhbatlashib o'tirdi. "Men yetarlicha dunyo kezdim, yetarlicha boylik orttirdim, – dedi Ruben. – Endi faqat o'zim tug'ilib-o'sgan qadrdon go'shamga qaytib, o'sha yerda tinch-sokin hayot kechirishni istayman. Bir zamonlar menga qilgan saxiyliking evaziga men ham senga bir hadya qilsam deyman. Ayt, nima istaysan?"

Nima uchun Ruben boy bo'lsa-da, baxtli emas edi?

Yangi uy mi yoki hashamatli katta kemami?"

"Rahmat, – dedi Josh, – ammo menga oddiy hayotim yoqadi, menga yangi uy ham, katta kema ham kerak emas. Menimcha, biz qila oladigan eng yaxshi ish – bu boringni boshqalar bilan baham ko'rib yashash. Shundagina hammamiz o'z hayotimizdan mamnun, baxtli yashashimiz mumkin".

Ruben Josh undan hech narsa so'ramaganidan avvaliga hayron qoldi, keyin esa o'zi shuncha boylik orttirgani bilan baxt topa olmaganini esiga tushdi-yu, jilmayib qo'ydi. "Haqsan! Biz sen aytgan ishni, albatta, qilamiz", – deb javob qildi u.

Nima uchun Ruben tug'ilib o'sgan joyiga qaytishni xohladi?

Nima deb o'ylaysiz, nima uchun hikoya "Marvarid" deb nomlangan?







1. Nima uchun qiz marvarid haqiqatdan ham Joshniki, deb aytdi?
2. Nima uchun Josh Rubenga marvaridni olishi mumkinligini aytdi?
3. Ruben marvaridni olganidan so'ng hayoti qanday o'zgardi? Ikkita misol keltiring.



### Testlarni yeching.

1. Nima uchun Ruben baliqchilarni izladi?
  - A) U yangi baliq sotib olishni xohladi.
  - B) Baliqchilarning qayig'ida suzishni xohladi.
  - D) Kichik marvaridlarini sotmoqchi edi.
  - E) Chig'anoq ichidagi marvaridni topishni xohladi.
2. Dengizchilar marvaridlarni qanday qilib topar edilar?
  - A) Dengizga sho'ng'ir edilar.
  - B) Ular marvaridlarni sotib olishar edi.
  - D) Ular marvaridlarni dengiz bo'yidagi shaharlardan izlar edilar.
  - E) Ular marvarid izlab sayohat qilar edilar.



Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning. Bizning o'lkamizda marvaridlar bor deb o'ylaysizmi? Marvarid haqida qiziqarli beshta ma'lumot toping.



Maqol ma'nosini izohlang.

**Bulbulga bog' yaxshi,  
Kaklikka – tog'.**



*Jabbor Razzoqov*



### Toshbag'ir

Kuz kunlarining birida shaharning shovqin-suronli ko'chalari, ko'p qavatli uylari, dim havosidan zerikkan uch o'rtoq atrofi o'rmon bilan o'ralgan Soyli qishlog'iga borib, bir dehqon hovlisiga joylashishdi. Qishloqning fusunkor tabiati ularni o'ziga maftun etgan edi.

Qishloq tog' yonbag'rida joylashganligi bois, xushhavo, sersuv, ajib bir manzilgoh bo'lib, u yerda oq qayin, archa, yovvoyi jiyda, do'lana kabi daraxtlar juda ko'p edi. Ayniqsa, oq qayinning tangaday maydamayda yaproqchalari, do'lananing sap-sariq munchoqdek mevalari yiltillab, kishini maftun etar, tabiatning butun go'zalligi qalbga ko'chib, beixtiyor o'tloqlar, zangori osmon rangiga singib, qorishib ketgini keladi. Qushlarning sayrashi esa biram yoqimlik, biri qo'yib, biri xonish qiladi...



Uch o'rtoq kun bo'yi tabiat qo'ynida sayr qilib, qosh qorayganda uyga qaytishdi. Jimgina, ishtaha bilan ovqatlanishdi, so'ng karavotlariga cho'zilib, derazadan yulduzli osmonni kuzatgancha pinakka ketishdi. Ular ko'pdan beri bugungidek miriqib uxlashmagandi. Yangi tong mehmonlarga yanada zavqli, orombaxsh va musaffo bo'lib tuyuldi. Nonushtadan so'ng ular yana sayrga oshiqishdi. Ravshan ismli yigit uyda qoldi. Uning qalbini muzdek havo va sokinlik elitdimi, karavotga cho'zilgancha ko'zi ilindi. Biror soatlar o'tar-o'tmas cho'chib uyg'ondi, xonaga g'alati bir qush qamalib, o'zini deraza oynasiga tinimsiz urardi...

Hamrohlari xonaga kirib kelishganda, Ravshan o'zida yo'q xursand edi.



– Qaranglar, – dedi u sheriklariga, o'zi ham nomini bilmaydigan qushni ko'z-ko'z qilib, – bir amallab ushlab oldim, shaharga olib ketaman.

Qushcha uning qo'lidan chiqishga, parvoz qilishga intilar, kimdandir najot izlardi. Ikki hamroh qushchani g'oyatda go'zalligiga zavqlanib boqishar, Ravshan esa beparvo, fikri qushni shaharga olib ketish bilan band.

– Ravshan, bu mitti jonivorni qo'yib yubor, – dedi sheriklaridan biri iltimos ohangida. – Odatda, bunday noyob qushchalar tutqunlikni yoqtirmaydi. Tutqunlik – ular uchun o'lim!

Ravshan qah-qah otib kuldi. Hamrohining gapini eshitmagandek:

– Qafasga solib, sayratib qo'yamiz, – dedi xotirjam va qushning oyog'iga ip solib, karavotiga bog'lab qo'ydi. Oraga allaqanday noxushlik tushdi. Uch o'rtoq shu kecha bir-birini tanimagandek, hissiz, bee'tibor yotishdi...

Tong otganda ham dilga tushgan g'ashlik, o'rtadagi begonalik hissi ko'tarilmagandi.

– Ravshan, tur o'rningdan, odam ham shunaqa bo'ladimi?! – Zafarning qahrli ovozi yangradi.

– Nega baqirasan?! – Ravshan ko'zini erinibgina ochib qaradi. Qushcha polda, qanotlarini yozgancha jonsiz yotardi...

Uch o'rtoq bir yov quvlayotgandek zudlik bilan narsalarini yig'ishtirishga tushdi. Shu payt xonaga uy

sohibining o'n bir yashar o'g'li Ozod choy ko'tarib kirib mehmonlar bilan so'rashdi. Ularning yo'lga shaylanganini ko'rib, hayron bo'ldi:

– Qishlog'imiz sizlarga yoqmadimi? – dedi bolalaracha soddalik bilan.

Mehmonlar minnatdorchilik bildirishdi. Ammo dardlari ichlarida edi. Ular xonadan chiqib, bir necha qadam yurib-yurmay, ichkaridan Ozodning chinqirig'i eshitildi. Bola qushchani hovuchida ushlaganicha, ularga yaqinlasharkan, yig'isi yanada zo'raydi:

– Har kuni, har kuni derazamga kelardi. Men unga non berardim, gaplashardim. Nega o'ladi? Nega?

Ravshan gangib qolgan, uning nazarida butun qishloq yig'layotgandek edi. U bu yerdan tezroq ketishga harakat qilar, lekin oyoqlari o'ziga bo'ysunmasdi.

Ikkovlon oldinda, biri esa ancha ortda beun ketib borisharkan, bolaning ovozi quloqlari ostida yanada qattiqroq jaranglardi.

1. Hikoya qahramonlari kimlar?
2. Bolalar nima uchun qishloqqa kelishdi?
3. Qishloqda qanday voqea sodir bo'ldi?
4. Ravshan to'g'ri ish qildimi? Nima uchun?
5. Qushlarning tabiat va insonlar uchun qanday foydasi bor?
6. Siz qushlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?



Tez aytish.

Turg'un to'rtta to'rg'ayni to'rg'a tushirdi.



Rasmlar orasidan qushlarni toping va nomini ayting. Ular haqida nimalarni bilasiz?



Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.





Rasmlarni ta'riflang.  
Topishmoqning javobini rasmlardan toping.

Oltin kosada toshib turar,  
Dala husnini ochib turar.



## Qarg'a va paxta

Nasiba Erxonova



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir dono qarg'a bo'lgan ekan. U insonlarning tilini tushunarkan. Bir kuni u paxta dalasi ustidan uchib ketayotlsa, paxtakorlar:

– Bu tergan paxtalarimiz yog' bo'ladi, kiyim-bosh bo'ladi, – deya suhbatlashayotganini eshitibdi. Shunda qarg'a paxtadan bir dona chigitni olib, tikuvchiga olib boribdi-da:

– Hormang, tikuvchi xola, menga shu chigitdan ko'ylak tikib bering, – debdi.

– Sen avval dehqonga bor, u chigitni ekadi, paxta holiga keltiradi, – debdi tikuvchi.

Qarg'a chigitni dalada mehnat qilayotgan dehqon boboga olib boribdi.

– Hormang, dehqon bobo, iltimos, mana shu chigitni ekib, hosilini menga bering, undan o'zimga kiyim tiktirmoqchiman, – debdi-da, uchib ketibdi.



Dehqon bahor, yoz, kuzda mehnat qilib, chigitni o'stirib, g'o'zadagi chanoqlarda ochilgan lo'ppi paxtalarni terib olibdi. Shunda qarg'a kelib hosilni olibdi-da, tikuvchi xolaning oldiga borib:

– Ana endi ko'ylak tikib bering, – debdi.

– Voy, shoshqaloq qarg'avoy, endi paxtani ip yigiruvchiga olib bor, u ip tayyorlab bersin, – debdi.

Qarg'a paxtani ip yigiruvchining oldiga olib borib:

– Hormang, ip yigiruvchi xola, mana bu paxtalardan ip yigirib bering, – deb iltimos qilibdi.

Ip yigiruvchi paxtani chigitlardan ajratib, urchuqda aylantirib, ip qilib beribdi.

– Endi kiyim tikib bering, – deb qarg'a tikuvchiga iplarni olib boribdi.

– Axir, ipdan kiyim tikib bo'larmidi, endi ipni to'quvchiga olib borgin, mato to'qib bersin, – debdi tikuvchi.

Qarg'a to'quvchining oldiga ravona bo'libdi.

– Assalomu alaykum, to'quvchi amaki, menga yordamingiz kerak, mana bu ipdan mato to'qib bering, undan kiyim tiktirmoqchiman, – debdi qarg'avoy.

To'quvchi iplarni birma-bir taxlab mato to'qib beribdi.

– Rahmat sizga, – deganicha qarg'a tikuvchining yoniga uchib boribdi.

– Axir, bu oppoq matodan kiyim tikib bo'lmaydi-ku, ko'ylagimiz chiroyli chiqishi uchun uni gul bosuvchiga olib bor, u matoni chiroyli gazlamaga aylantirib beradi, – debdi tikuvchi.

Qarg'a gul bosuvchini izlab ketibdi.

– Hormang, gul bosuvchi amaki, shu matoni gulli gazlamaga aylantirib bering, iltimos, – debdi qarg'a. Gul bosuvchi matoga rang-barang tasvirlar tushiribdi.

Qarg'a uni shosha-pisha tikuvchi xolaga olib boribdi.





– Mana, endi bu gazlamadan senga ko'ylak tiksa bo'ladi, – debdi tikuvchi va uch kun muhlat so'rabdi.

Uch kun o'tib, qarg'avoy kelishiga, tikuvchi uning egniga mos chiroyli kiyimni tikib bitiribdi.

– Rahmat sizga, tikuvchi xola, – deb qarg'a minnatdorchilik bildiribdi-da, o'z uyiga uchib ketibdi. Qo'shni qushlar qarg'aning egnidagi kiyimni ko'rib, juda havas qilibdi. Uni qayerdan olganini so'ragan ekan, qarg'a shunday debdi:

– Bu kiyim paxtadan bo'lgan. Lekin kichkinagina chigit paxta holiga kelguncha, bobodehqon uch fasl – bahor, yoz, kuz tinim bilmay mehnat qilarkan, so'ng paxtani mato holiga keltirguncha ip yigiruvchi, to'quvchi, gul bosuvchilar ishlarkan, keyin undan kiyim tiksa bo'larkan. Bu gaplarni diqqat bilan tinglab turgan qushlar chug'ur-chug'ur qilib, paxtaga mehnati singgan barcha insonlarga rahmat aytishibdi.



1. Kuz siz uchun qanday fasl? Qaysi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi?
2. Qarg'a chigitni matoga aylantirish uchun kimlarning oldiga bordi?
3. Ip yigiruvchi qanday ishlarni bajaradi?
4. Nega biz paxtani "Oq oltin" deb ataymiz? Buning sababi nima?
5. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?



**Kuz kunlari xonadoningiz mehmoni, kamina qovoqvoy bo'laman. Iya, do'stim, yuzingiz burishyaptimi? Men haqimdagi foydali ma'lumotlarni bilib olsangiz, har kuni qovoqli taom qilib bering, deb oyijoningizga yalinasiz.**

- Qovoq oshqozon va ichaklar uchun foydalidir.
- Ozish uchun ham qovoq foydalidir.
- Qovoq tarkibidagi A va E vitaminlari ko'z va teri faoliyatiga, B vitamini asab tizimiga, K vitamini esa suyak, moddalar almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Qovoq temir moddasiga boy.
- Unda kalsiy va magniy moddasi serob.

Shifokorlarning aytishicha, qovoq immunitetni ham oshiradi. Hadeb betob bo'lavermaysiz. Shunday "bebaho" ma'lumotlardan keyin qovoqli taom yemayman, deb ko'ring-chi.

Bolalar, qovoqdan qanday taomlar pishirsa bo'ladi?



Topishmoqning javobini toping.

O't yemaydi bedanam,  
Suv ichmaydi bedanam,  
Tilla to'qim ustida,  
Yo'rg'alaydi bedanam.



O'ylab ko'rib, javob bering.

1. Tikuv mashinasi qanday tuzilishga ega ekanligini bilasizmi?
2. Uni ishlatishni-chi?
3. Siz qanday ishlab chiqarish uskunalarini yaratishni xohlaysiz?
4. Undan nima maqsadda foydalanasiz?
5. Siz yaratgan qurilmaning insonlarga qanday foydasi tegishi mumkin?



Tez aytish.

Paxta qattiqmi, taxta qattiq?  
Sodiq momiq paxtani terdi.



Ertakni o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.  
Yaratmoqchi bo'lgan uskunangizning rasmini chizing.

## Miraziz A'zam



Miraziz A'zam – o'zbek adabiyotining yetuk namoyandasi. Uning "Aqlli bolalar", "Senga nima bo'ldi?", "G'alati tush", "Yer aylanadi", "Yerga dovrug solamiz", "Bir cho'ntak yong'oq", "Eng yorug' yulduzlar", "Saylanma" kabi she'riy to'plamlari, shuningdek, "Ming

bir so'zni bilaman" nomli bolalar uchun izohli lug'at kitobi nashr etilgan.



Dunyo xalqlari xilma-xil tillarda gaplashadilar. Biroq fan aniqlikni yaxshi ko'radi. Shu tufayli vaqti-vaqti bilan tilshunoslar tillar sonini hisoblaydilar va o'z ma'lumotlarini e'lon qiladilar.



Kurrai zaminimizda taxminan 5621 ta til va sheva bor bo'lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan, xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi mavjud emas, faqat og'zaki nutq shakliga egadir.






She'ni ifodali o'qing. Mazmunini tushuntiring.



## Ona tilim

Miraziz A'zam

Ona tilim, turkiy tilim,  
Ardoqligim, o'zbek tilim.  
Avaylayman seni doim,  
Qaboq ila ko'zdek tilim.  
Ona tilim, o'zbek tilim,  
Qadim-qadim turkiy tilim.  
Menga berding san'at, bilim,  
Vatanimdek ko'rkli tilim.  
Ey, sevikli o'zbek tilim,  
Turkiy tilim, ona tilim.  
O'zga tilga alishmasman,  
O'z onasin almashar kim?  
Turkiy tilim, ko'rkli tilim,  
O'zbek tilim, ko'zdek tilim.  
Ona tilim, dono tilim,  
Dunyoda bir dona tilim.



1. She'rdan ona tilimizga qanday ta'rif berilyapti?
2. Shoir ona tilini nimaga qiyoslagan?
3. "Qadim-qadim turkiy tilim,  
Menga berding san'at, bilim" misralarini  
qanday tushundingiz?
4. Siz ona tiliga qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?



1. She'rdan ona tilini boshqa tillarga almashib  
bo'lmasligini ifodalovchi satrlarni topib o'qing.
2. Maqollarni yod oling va til mavzusidagi  
maqollar qatorini davom ettiring.



1. Tilga e'tibor – elga e'tibor.
2. Tilingda bo'lsa boling,  
Kulib turar iqboling.
3. Ariqni suv bezar,  
Odamni – so'z.



### Kitoblar mazmuni (rivoyat)

1. Rivoyatdagi shahzodaga otasidan qanday  
meros qoldi?
2. U olimga qanday topshiriq berdi?
3. Olimning so'nggi xulosasi qanday edi?
4. Yaxshilik haqida beshta maqol ayting.



She'ni yod oling.

## Halima Ahmedova

Halima Ahmedova – "Ko'zimning tili", "Tungi marvaridgullar", "Erk darichasi", "Tiyramoh", "Afsun", "Umid soyasi", "Shafaq ibodati", "Nigoh qiblati", "Yosuman gulining soyasi", "Yashil", "Tashbeh" kabi kitoblar muallifi, shoira. Uning kitoblarida insonni yaxshilikka boshlash, ma'nan poklanish, Vatanga muhabbat tuyg'ulari ifoda etilgan.



Maktabda eng yaxshi ko'rgan fanlaringiz qaysi?

Ayting-chi, hamma fanni yaxshi o'zlashtirish uchun nima qilish kerak?

Siz o'zingizdan kichiklarga qanday maslahatlar bergan bo'lardingiz?



She'rni ifodalari o'qing. Mazmunini tushuntiring.


## Tabiat darsi

("O'g'limga darsliklar" turkumidan)

Halima Ahmedova



Jahon xaritasin gilamday yoyib,  
Deysan: "Dunyo kengdir, dunyo ajoyib.  
Hozir uxlasam-u, ertaga tongda,  
Parijmi, Londonda qolsam uyg'onib".  
Ajib hayratingda orzu shu'lasini,  
Parvozga shaylangan qanotdir qo'ling.  
Balki, olislarga yetaklar seni,  
Mening yuragimdan boshlangan yo'ling.  
Bir kuni mehmonga borsak qaygadir,  
Qo'msayman nur to'la supachamizni.  
Ichikib qolasan, sog'inib darrov,  
O'zimizning eski kulbachamizni.  
O'g'lim, Vatanidan ketganlar asli,  
Ruhni tashlab, olib ketganlar tanni.  
Dunyo boyligini sig'dirolsang ham,  
Jomadonga joylab bo'lmas Vatanni.





## Ona tili darsi

("O'g'limga darsliklar" turkumidan)

O'g'lim, tanib qolding oq-u qorani,  
Endi ertaklar ham seni aldamas.  
Yo'q joydan savollar topasan menga,  
Nega "Ona tili", "Ota tili"mas?  
Bu haqda hech qachon ko'rmabman o'ylab,  
Qalbimni uyg'otdi bir ilohiy his.  
Bizning o'zagimiz ona ko'nglidir,  
"Ona tili" deya aytilmas bejiz.  
Bilsang, kindik qoning to'kilgan tuproq,  
Mening dilim, sening, uning dilidir.  
Agar-chi, Vatanni onajon desak,  
Bizning "Ona tili" Vatan tilidir.  
Bu tilda so'zlaydi o'zbek vijdoni,  
Va yana bor bunda dunyo havasi.  
Tinglasang keladi har so'z qatidan,  
Navoiy bobongning o'tli nafasi.  
O'rgilay, onajon degan tilingdan,  
Demak, "Ona tili" joning tilidir.  
Mehr oqayotgan tomirlaringda  
"Ona tili" buyuk qonning tilidir.

1. "Tabiat darsi" she'rida Vatanni ulug'lovchi qanday misralar bor?
2. Muallif she'rda dunyoga qanday ta'rif bermoqda?
3. Sizning ham xayolingizga nega aynan "Ona tili", "Ota tili" emas, degan savol kelganmi?
4. Nima uchun shoira o'g'liga qarab: "Endi ertaklar ham seni aldamas", demoqda?
5. "Tinglasang keladi har so'z qatidan, Navoiy bobongning o'tli nafasi" misralarini izohlashga harakat qiling.
6. Ona tilimizni ulug'lovchi misralarni toping.

"Tabiat darsi" va "Ona tili darsi" she'rlarini bir-biriga bog'lab turgan mavzularni ustun qilib yozing.

"Ona tili darsi" she'rini yod oling. Boshqa fanlar haqida qofiyadosh so'zlari bor kichik she'rlar yozishni mashq qiling.

## Temur Ubaydullo




Temur Ubaydullo – bolalar adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandaligidan biri. U o'z ijodini bolalarga she'r, doston, hikoyalar yozishdan boshlagan. Uning "Telefon", "Qirlar to'la qizg'aldoq", "Hayot guli" kabi

yigirmaga yaqin kitoblari chop etilgan.




Har bir rasmning bosh harflarini birlashtirib yashiringan so'zni aniqlang va rebus javobini toping



## Baxtimizning timsoli

Temur Ubaydullo



Hilpirayver boshimiz uzra,  
Xuddi tovus misoli, bayroq!  
Qalbimizni huzurga to'ldir,  
Senga mehrim dil to'la qaynoq,  
Erkimizning timsoli – bayroq!

Yulduzlaring – imon, sadoqat,  
Erk birla baxt, boqiy saodat.  
Baxsh aylading g'urur beaded,  
Sururimiz o'zingsan abad,  
Baxtimizning timsoli – bayroq!

Har rangingda bor chuqur ma'no,  
Yam-yashili – kelajak a'lo.  
Oppoq rangi – tunganmas ziyo,  
Havorangi – osmon musaffo.  
Aytar bugun o'g'lim va qizim –  
Baxtimizning timsoli – bayroq!



Shayx Kubroning matonatlari,  
Buxoriyning ibodatlari,  
Qurbonjonning shijoatlari,  
Uvaysiyning malohatlari,  
Asli sening kamoling – bayroq!



Ona yurtim, mangu bo'l omon.  
Madhing ila to'lsin keng osmon.  
Bayrog'ingga boqqanda jahon.  
Do'stlar yuzi bo'lsin nurafshon.  
Baxtimizning timsoli – bayroq!  
Yashna, tovus misoli, bayroq!

1. She'r mazmunini so'zlab bering.
2. Vatanimiz bayrog'i qachon tasdiqlangan?
3. Shoir she'rda bayrog'imizni nimalarga qiyoslagan?
4. Quyidagi misralarning mazmunini tushuntiring:

*Ona yurtim, mangu bo'l omon,  
Madhing ila to'lsin keng osmon.  
Bayrog'ingga boqqanda jahon.  
Do'stlar yuzi bo'lsin nurafshon.*



Maqollarni yod oling va Vatan mavzusidagi maqollar qatorini davom ettiring.

1. Ona yurtim omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.
2. Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.
3. Vatani borning baxti bor,  
Mehnati borning – taxti.

"Davlatimiz ramzlari" mavzusida klaster tuzing.



**Davlatimiz  
ramzlari**



"Bayrog'imiz – g'ururimiz" mavzusida matn yozing.

Axloqiy fazilatlarga qaysi xislatlar kiradi?



Yusuf Xos Hojibning quyidagi hikmatli so'zlarini izohlang:  
*Yaxshi axloqiy fazilatlarga ega kishi har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir!*



## Qanot qoqqan orzular

Hilola Hamdamova

Nusratjon ustozidan "Yosh hunarmand" tanlovi haqida eshitdi-yu, halovatini yo'qotdi. Kimsan mashhur kulol Sobir otaning nabirasi bo'lsa-yu, tanlovda ishtirok etmasa, uyat bo'ladi-ya. U tanlovda qatnashadigan bo'ldi. Bobosi ikkovlari loy pishitishdi, hushtaklar yasab olovda quritishdi, rang berishdi. Tayyor hushtakchalarni avaylab qutiga, so'ng xaltaga solishdi.

Birinchi soat tugagach, Nusratjon ustози huzungaga oshiqdi. Shu payt uning oyoqlari chalishib ketdi. Gurs etib polga yiqildi, qo'lidagi xaltasi ham nariroqqa borib

tushdi. U ko'zini ochganida, yuqori sinfda o'qiydigan Ahmad bezori tepasida tirjayib turardi.

– Ko'zingga qarab yursang bo'lmaydimi? – dedi Ahmad.

Nusratjon o'rnidan turdi-da, "Hushtaklarimni sindirib qo'yding", – deya unga yopishdi. Ahmad hech narsaga tushunmay yelka qisdi va nari ketdi. Nusratjon xaltasini olib hovliga chiqdi. Ust-boshini ham qoqmasdan, qutichani ochdi. Hushtakchalar sinib ketgan edi. Ularga qarab yig'lagisi keldi-yu, yig'lolmadi.

– Nusratjon, tanlovda qatnashaman, deb va'da berganding. Haligacha ishingni olib kelmading, – dedi Ravshan aka quruq qo'l bilan xonaga xomush kirgan o'quvchisiga qarab.

Nusratjon indamadi. Ishini biror o'rtog'i ko'rganida ham ustozini ishontirgan bo'lardi. Nusratjon bezori Ahmad deganlarining ustidan shikoyat qilmadi. Bo'lib o'tgan voqea haqida bobosiga ham indamadi. Kechga tomon hech kimga bildirmay ustaxonadan xonasiga loy olib keldi. Hamma uyquga ketgach, ishga kirishdi. Loyni qo'li bilan rosa pishitdi, bobosi o'rgatganlarini takrorladi. Hushtakchalariga teshiklar qildi. Ko'ngli to'lmaganlarini buzib tashlab, qaytadan yasadi. Uch kecha shu ish bilan ovora bo'ldi. Qolgan loylariga savatcha shaklini berib, ichini olma, anor kabi "mevalar" bilan to'ldirdi. Yasagan ishlarini bobosining shogirdi pishirib bergach, yaxshilab taroshladi-da, bo'yadi. Tayyor o'yinchoqlarini



qutichaga solar ekan, yuragida urib turgan mitti orzularini avaylab terayotgandek edi.

– Ustoz, haligi, men ishlarimni olib keldim, – dedi Nusratjon o'qituvchisining oldiga kelganida so'z topolmay.

– Kechikdik, bugun tanlov boshlandi. Ishtirokchilar kecha ko'rgazmalarini tayyorlab ketishgan. Men "O'quvchim betob bo'lib qoldi", deb xabar jo'natdim. Endi darsga bor, – dedi Ravshan aka xotirjam ohangda. Nusratjonning yuragi qalqib ketdi.

– Bobom mening yutug'imni ko'rmoqchi edilar. Endi ularga nima deyman? O'z qo'llarim bilan yasaganim.

Nusratjon shunday deb qutini ustozining stoli ustiga qo'ydi-da, sekin xonadan chiqdi. O'n tun ishtab toliqmagani Nusratjon og'ir charchoqni his qilib, orqada



qaytar ekan, "Sobirov" degan hayqiriqdan hushiga keldi.

– Sumkangni xonamda qoldir. Men mashinamda bo'laman. Ulgurishimiz shart, – deya ustoz qutini ko'targancha shoshib kelardi.

Ha, ular ulgurishdi. Ulgurganda ham, hammadan oxirida tanlov zalining bir chekkasidan qimtinibgina joy olgan Nusratjon tanlov yakunida shohsupaning to'riga ko'tarildi. Nusratjon yasagan hushtak, mevali savatchalar qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. Eng zo'r sovrin Nusratjonga tegdi va keyingi bosqichga yo'llanma oldi. U hamma charchoqlarini butkul unutgan edi.

Ertasi kuni maktabga kelgan Nusratjon yo'lakda Ahmadni uchratib qoldi. Ahmadning yuzi shilingan, qo'llari ko'kargan edi. U zinadan yiqilib tushibdi. Ahmad a'lo kayfiyatda kelayotgan Nusratjoni ko'rib, o'z qilmishidan uyaldi.





1. Nusratjon qanday tanlov haqida eshitib qoldi?
2. Uning bobosi kim edi?
3. U tanlovga qanday tayyorgarlik ko'rdi?
4. Nusratjon nima uchun yasagan narsalarini o'z vaqtida olib kelmadi?
5. Ahmad qanday bola? U to'g'ri ish qildimi?
6. Nusratjon yasagan narsalari sinib qolgandan so'ng nima qildi?
7. U tanlovda qatnasha oldimi?
8. Eng zo'r sovrin kimga berildi?



1. Hikoyadan Nusratjonning tanlovga tayyorgarlik ko'rgani haqidagi gaplarni topib o'qing va bunga o'z munosabatingizni bildiring.
2. Berilgan hikoya asosida reja tuzing va qayta hikoya qiling.



Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning. Siz qanday to'garaklarga qatnashasiz? Yasagan biror buyumingiz va uning yasalishi haqida so'zlab bering.

## Yetti xazinaning biri



Hikmatli gaplarning ma'nosini tushuntiring.

Bilim olish, foydali kasb o'rganishdan boshqa g'ami bo'lmagan beg'ubor yoshlik damlarini, iqtidori va o'tkir zehni bo'lmag'ur va foydasiz ishlarga sarflash – har bir kishi uchun o'zini o'zi kechira olmaydigan xatolardan.

*“Farzandnoma”, Obiddin Mahmudov*

Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim,  
Orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.

*Alisher Navoiy*







## Yetti xazinaning biri

Hilola Hamdamova

Bu safargi suhbatimiz "Kim bo'lsam ekan?" mavzuda bo'ldi. Sinfimiz qizlari shifokor bo'lishdan boshlab, dizaynerlik kasbini maqtaganicha, gaplarini tugatishda Ularning balandparvoz gaplaridan o'ylanib qoldim. Hammasi shifokor bo'lib ketsa, qishlog'imizda yangi ochilayotgan konserva zavodi, sut mahsulotlarini qayta ishlash sexida kim ishlaydi? Navbat o'g'il bolalarga keldi.

– Men uchuvchi bo'lmoqchiman, – dedim navbat kutmay, o'rnimdan turib.

– Avval karra jadvalni yodlab ol, – dedi yonimdagi o'tirgan Nuriya va ko'ylagimning yengidan tortib joyimda o'tqazdi. Sinfda yengil kulgi ko'tarildi. O'rtoqlarim birinchi ketin o'z orzularini ayta boshlashdi. Navbat sinf sardori



Sardorga keldi. U negadir gap boshlagisi kelmay, jim turib qoldi.

– Sardorning eshagi bor. Shuni boqib yuraveradi, – dedim o'rtadagi sukutni buzib.

Negadir, bu gapimga hech kim kulmadi.

– Men, – dedi Sardor kattalarga xos vazminlik bilan, – bu haqida ko'p o'yladim va aniq qarorga keldim. Dehqonchilik – yetti xazinaning biri. Men dehqon bo'lmoqchiman. Chunki yer insonni boqadi.

– Dehqon so'zi ingliz tilida fermer degani.

Qishlog'imizga tajribali, yer tilini biladigan fermerlar juda kerak, – dedi o'qituvchimiz Sardorning gapini ma'qullab.

– Men o'z yerim, traktorim bo'lishini orzu qilaman. Kelajakda yerdan yaxshi daromad olib, maktab, bog'chalarni ta'mirlashda homiylik qilmoqchiman. Hosildorlikdan tushgan daromaddan qishlog'imizni obod qilishga hissa qo'shishni istayman. Yangi ish o'rinlari ochish uchun bizga zarur bo'lgan korxonalar qurmoqchiman. Mahsulotlarni yaxshi saqlash uchun sovitish ombori qursam deymen.

O'rtog'imning bu gapiga hamma qarsak chalib yubordi. Sardor o'zi yaxshi bola. Faqat "5" bahoga o'qiydi. Sinfga

ham to'rt yildan beri sardorlik qiladi. Sinfdoşlar uning gapini ikki qilishmaydi. Oradan bir oy o'tib, Sardor eshagini chiroyli to'riq otga almashtirdi. Otasining aytishicha, qish bo'yi boqilgan novvosning puliga olishibdi. Biram chiroyli ot ekan. Aqlliligini aytmaydimi? Bir vaqtlar eshagini masxara qilganimdan uyalib keldim. Boshida qashqasi, oyog'ida taqasi bor, yollari uzun bo'lsa juda havasim keldi.

Bug'doy o'rimi boshlandi. O'sha kuni otam o'rtog'imning ot-aravasida ellik bog'lam somonni uyga tashib qo'yishimni aytib, ishga ketdi.

– Bu aravam biror-bir shartni bajarganga xizmat qiladi, – dedi Sardor kutilmaganda. – Agar sen karra jadvalini yodlab bersang, somoningni tashib beraman.

Kutilmagan shartdan shoshib qoldim. O'sha kuni uning "imtihoni"dan o'tolmay, somonni uyga tashib kelolmadim. Otamdan dakki eshitmaslik uchun tuni bilan karra jadvalini yod olib chiqdim. Ertasi kuni Sardor "imtihon" natijasiga qarab, atigi to'rt bog'lam somonni uyga olib kelib berdi. Xullas, besh kun deganda somonni tashib tugatdik.



– Otasiga rahmat, – dedi otam bir kuni, – bugun kombayn buzilib qolgan edi, allaqayoqdan kerakli ehtiyot qismini topib keldi va birga tuzatishdi. Kallasi butun bola ekan, – deya otam Sardorni maqtab qoldi. Uning otini minish uchun ancha-muncha misol-masalalar yechishimga to'g'ri keldi. Maktab boshlanganda matematikadan ancha yaxshi baholar olayotganimni sezdim.

Hozir Sardor bilan bir kollejda o'qiyapmiz. U qishloq xo'jalik mashinalari mexanizatsiyasi, men hisobchi-buxgalter yo'nalishidaman. Kelgusida kreditga traktor olar emish. Yana oliygohga o'qishga ham kirar ekan. Har safar menga:

– Yaxshilab o'qi, mening "Ravnaq" fermer xo'jaligimning hisobchisi sen bo'lasan. Dehqonchilik – yetti xazinaning biri. Bu xazinaning kalitini faqat senga ishonaman, – deydi.

Hozir ta'til vaqtida bir fermerning hisobchisiga shogird tushganman. Kasbimning sir-asrorlarini o'rganyapman. Do'stim esa erta tongdan dalada javlon uryapti, yer bilan tillashyapti. Kechqurunlari kelgusi yil oliygohga kirish uchun kitoblar o'qiyapti. "Yetti xazinaning birini zabt etmaguncha qo'ymayman", – deydi u. Menga karra jadvalni o'rgatib, kasb tanlashimga ko'maklashgan, shunday mehnatkash, to'g'riso'z, dangalchi do'stim borligidan faxrlanaman.

Siz bu fikrimga nima deysiz, aziz o'quvchi?!





1. O'quvchilar qaysi mavzuda suhbatlashdilar?
2. Sinf sardori kim? U kim bo'lmoqchi?
3. Sinfdagi qizlar qaysi kasb egasi bo'lishmoqchi?
4. Oradan bir oy o'tgach, Sardor nima ish qildi?
5. U do'stiga qanday shart qo'ydi?
6. Sardor to'g'ri ish qildimi, nima deb o'ylaysiz?



Maqollarni yod oling va hunar mavzusidagi maqollar qatorini davom ettiring.

1. Hunar bo'lsa qo'lingda,  
Non topilar yo'lingda.

2. Qunt bilan o'qib  
Hunardan riz...



Qanday zamonaviy kasblarni bilasiz? Klaster usulida davom ettiring.


Menejer

Marketolog

Dasturchi

Dizayner

Bloger



O'zingiz bilgan kasb va hunar nomlarini guruhlariga bo'lib yozing.

Kasb


O'qituvchi  
Hisobchi  
...

Hunar

Kulol  
Oshpaz  
...



Hikoyani erkin so'zlab berishga tayyorlaning.



1. Hunarli qanday qilib mingni yengadi?
2. Nega yigit kishiga yetmish hunar ham oz deyishadi?



Rasmni ta'riflang va unga mos sarlavha o'ylab toping.



## Hunarli mingni yengar

(*"Farzandnoma"* kitobidan)  
Obiddin Mahmudov

Shogird so'radi:

– Hayotda afsusli narsalar nimalar?

Ustoz dedi:

– Mashaqqat ila erishilganini yo'qotish, biron-bir foydali kasbni o'rganmasdan, umrni mazmunsiz o'tkazish...

Ha, bu hikmatning zamirida chuqur ma'no bor. Keling, bu xususida bir ibratli hikoyat so'zlab beray.

Toki, siz ham undagi hikmatlardan bahramand bo'lgaysiz.



Qadim zamonlarda qudratli bir davlatning bahodir va navqiron podshohi bo'lgan ekan. U saltanatni aql-idrok va mohirlik bilan boshqarar ekan. Oylar, yillar shu zaylda o'taveribdi. Ammo bir muddatdan keyin yosh



podshoh aysh-u ishratga berilib, hukmronlikni asta-sekin qo'ldan chiqara boshlabdi. Vaziyatdan foydalanib, qo'shni mamlakat hukmdori bu yurtga hujum qilib, uni bosib olibdi. Baxtli tasodif tufayligina yosh podshoh jon saqlab qolishga muvaffaq bo'libdi.

U yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tog'-u tosh qir-u adir, cho'l-u biyobonlardan oshib, o'zga bir mamlakatga kelib qolibdi. Yonida bir chaqasi, yeyishga bir burda noni ham yo'q ekan bechoraning. U kech tushib qorong'i bo'lganda, bir kichik hujra yoniga zonga yetib kelib, eshikni taqillatibdi. Bu hujra temirchi chonining uyi ekan. U kech bo'lganda ham ish bilan band ekan. Chol eshikni ochib:

– Kel, bolam, kimsan, kech bo'lganda nima qilib yuribsan? – deb so'rabdi.

– Men bir savdogarning xizmatkori edim. Karvoni o'zga qarog'chilar hujum qilib, hammani o'ldirishdi. Birgina men omon qoldim. Iltimos, menga bir kechaga tunash uchun joy bersangiz, – deb iltimos qilibdi.

Chol mehmonni uyiga olib kirib ovqatlantiribdi, so'ng dam olishi uchun to'shak solib beribdi. Podshoh yigit bir kecha-yu bir kunduz uxlabdi, chunki u uzoq vaqt uxlamasdan, och-nahor yo'l yurgan ekan-da. Uyqudan turib, biroz o'ziga kelganidan so'ng, u hayotning qadr-qimmatini, umr mazmuni, o'zining esa biror kasbi o'rganmagani, hayotini behuda aysh-u ishratga

sarflagani, bundan keyin qanday kun kechirishi xususida chuqur o'y suribdi. Chunki odamzodning boshiga qachon musibat, og'ir kunlar tushsa, u kasb-hunar, umr, hayot haqida o'ylay boshlaydi-da.

Ikkinchi kuni ertalab chol yigitning yoniga kelib, biror hunari bor-yo'qligini, bundan keyin nima ish bilan mashg'ul bo'lishini so'rabdi. Podshoh yigit bir og'iz so'z aytolmabdi. Shunda chol unga shu yerda temirchilikni o'rganib, kun ko'rishni taklif qilibdi. Podshoh yigit noiloj bu taklifga ko'nbdi. Cholning hech kimi yo'q ekan, chunki bir paytlar xuddi shu podshoh yigit bu joylarga hujum qilib, yurtning kulini ko'kka sovurgan ekan. Qirg'inbarotda cholning xotini, ikki o'g'li va bir qizi dushmanlar qo'lida jon taslim qilishgan ekan. Shundan buyon chol yolg'iz yashar ekan.

Sobiq podshoh choldan temirchilik sirlarini o'rgana boshlabdi. Oradan yillar o'tibdi. U kasbini puxta o'rganib, mohir temirchi bo'lib yetishibdi. Olislardan unga Vatani haqida xabarlar kelib turarkan. U tug'ilib-o'sgan yurtini juda sog'inganidan, yurtiga qaytishni ko'p o'ylar ekan. Oradan vaqt o'tib, u ko'plab qurol-yarog' yasabdi va o'z yurtiga borib, o'zining safdoshlari-yu izdoshlarini topibdi. Aql-u zakovati, kuchi va mahoratini ishlatib, bosqinchilardan taxtini qaytarib olibdi.


Podshoh ertasigayoq quyidagi mazmunda farmoni oliy chiqaribdi:



“Saltanatdagi barcha fuqaro, o‘g‘il-qiz mansabi, millati, irqidan qat‘i nazar, jamiyatga foydali ilm va kerakli kasb, hunar o‘rgansin”.

Podshohning o‘zi esa oqila bir qizga uylanib, ko‘p farzand ko‘ribdi. Ularning har biriga kasb-hunar o‘rgatibdi. Vaqtlar o‘tib, bu yurt juda qudratli saltanatga aylanibdi va fuqarolari farovon hayot kechira boshlashibdi.

Yosh podshoh o‘zining ko‘rgan qiyinchiliklar tufayli hayotning har bir lahzasini mazmunli o‘tkazish lozimligini tushunib yetibdi. Shuningdek, har qanday mamlakatning tinchligi, qudrati, ravnaqi o‘sha yurt fuqarolarining jasurligi, mardligi va kasb-hunar egallashiga bog‘liqligini ham anglabdi.



1. Oqil va odil podshoh nima uchun o‘z taxtini qo‘ldan chiqardi?
2. Taxtidan ayrilgan podshoh qayerga borib qoldi?
3. U qanday hunar o‘rgandi?
4. Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Hikoyatni erkin so‘zlab berishga tayyorlaning.




Dunyodagi 12 ta eng kichik kitob bir osh qoshiqqa sig‘adi. Ular orasida Qur‘oni Karimning mitti nashri, 12 000 so‘zdan iborat ingliz tili lug‘ati, Galileo Galiley asarlari jamlangan kitobcha va boshqa kitoblar bor. Ularning ichidagi ba‘zi kitoblarning hajmi katta barmoqning tirnog‘icha keladi.



## Kitob va boylik

Hidoyat Olimova



O‘zini shaharning katta boyi hisoblaydigan bir ishbilarmon odamlardan Hasan Dashtiyning dovrug‘ini eshitib, uning kulbasiga kelibdi va debdi:

– Men sizni bunchalar faqir deb o‘ylamagan edim. Boshingizga biror kulfat tushsa, xarjlashga hech



vaqongiz yo'q ekan-ku. Mening boyliklarim bitmas-tuganmas. Ular har qanday xatardan sog'-omon chiqishimni kafolatlaydi. Sizning mana bu kitoblaringiz qadriga o'zingizdan o'zga yetmasa kerak.

Oradan bir qancha vaqt o'tibdi. Yurtga bosqinchilar hujum qilibdi. Boyvachchani bor dur-u javohirlari ham, Hasan Dashtiyning sandiq-sandiq kitoblari ham talonchilar qo'lga o'tibdi. Bir kuni sobiq boy Hasan Dashtiy uchratib qolib:

– Uzi, ustoz, o'shanda katta ketgandim, bugun qo'limda bir miri ham qolmadi. Bosqinchilar sizning ham sandiq-sandiq kitoblaringizni dur-u javohir deb o'ylab, talab ketganmish, – debdi hamdardlik izhor qilib.

Hasan Dashtiy shunday javob beribdi:

– Yaqinda Hirot shahridagi shogirdlarim xabar keltirdi. Ular talonchilar qo'lidan mingga yaqin kitoblaringizni sotib olibdilar. Yana qancha asarlarimga muxlislarim, ilm ahli talabgor bo'layotganmish. Shu tariqa bosqinchilar sizlarni bilmagan holda kitoblaringizni Hirotidagi shogirdlarimga yetkazibdi. Men buni eshitib, xursand bo'ldim... Endi qarang, taqdir, oltin-u zar yomon odam qo'lga tushsa, yomonlikka ishlatilishi mumkin ekan, ammo kitob har joyda ezgulikka xizmat qilar ekan.

Hasan Dashtiyning bu gaplarini eshitgan boy qattiq ta'sirlanibdi. Ilm ahliga hurmati oshibdi.




1. Hikoyat nima haqida ekan?
2. Boy odam Hasan Dashtiyning faqirligini bilib qolib, unga nima dedi?
3. Oradan bir qancha vaqt o'tib, qanday voqea sodir bo'ldi?
4. Hasan Dashtiyning kitoblari qanday saqlanib qoldi?
5. Boy odam bu voqeadan qanday xulosa chiqardi?
6. Kitob boylikdan ustunmi? Nima deb o'ylaysiz?



Rasmlar orasidan topishmoqning javobini toping hamda unga ta'rif bering.

Tinmay o'qisang agar,  
Ko'p narsani o'rgatar.  
Bilsang, uka, o'ylab top,  
Bilim koni u ...



Hikoya asosida "Kitob, mening do'stimsan" mavzusida matn yozing.



## Selli Rayd

Selli Rayd – amerikalik astronom, Amerikadan kosmosga parvoz qilgan birinchi ayol. U koinotga oid qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Uning fazo kemasidan tashqarida ishlash uchun skafandni qanday kiyish haqida yozganlarini o'qib, yangi bilimlarni egallang.



1. Koinot haqida nimalarni bilasiz?
2. Fazogirlar haqida bilganlaringizni so'zlab bering



## Fazoga sayr

**PIRIL**

Fazoda biror ishga tayyorgarlik ko'rish yerdagidek oson emas. Fazo kemasida sayohat qiladigan fazogirlar fazoda turli ishlarni amalga oshirishlari kerak. Bajariladigan ishlarning ko'p qismi fazo kemasi ichida amalga oshirilsa ham, ayrim hollarda fazogirlar biror tajriba o'tkazish yoki ta'mirlash ishlari uchun fazo kemasidan tashqariga chiqishlariga to'g'ri keladi.

Fazo kemasida bo'lish aynan Yerdagi bo'lishdek em... Yerdagi mavjud bo'lgan tortishish kuchi bizni havoda muallaq turmasligimizni ta'minlaydi. Fazoda esa fazo...

vaznsizlik holatida bo'ladilar. Arzimas kichik harakat ham ularni xona bo'ylab havoda suzib yurishlariga yoki havoda muallaq turishlariga sababchi bo'lishi mumkin. Bu holatga tushmaslikning yagona yo'li – biror mahkamroq narsani ushlab turish. Insonlar odatdagi kiyimda fazoda yashay olmaydilar.

Fazogirlar fazo kemasida ekanliklarida tashqi fazo bo'shlig'idan himoyalanaadi, ammo kemadan tashqarida nafas olish uchun hech qanday havo yo'q, shu bilan birga fazoda harorat juda yuqori yoki juda past bo'lishi mumkin. Fazodagi obyektlarning quyosh nuri tushib turgan qismida harorat Selsiy shkalasi bo'yicha 115 darajagacha qizib ketishi, soyadagi qismi esa 95 darajagacha sovib ketishi mumkin.

Fazo kemasi ichidagi himoyalani sh doirasidan chiqishda fazogirlar maxsus skafandr kiyishlari kerak. Ikki fazogir har qanday fazo sathida tashqariga birgalikda chiqadi, chunki noma'lum muhitda ishlashda hamroh bilan chiqish osonroq va xavfsizroqdir. Tashqariga chiqmoqchi bo'lganlar bir necha soat oldin kiyinishni boshlaydilar. Ikkita skafandr bir tomonidan asosiy xonani yopadigan, boshqa tomonidan esa fazoga ochiladigan, kichik bo'lmagan iborat havo shluziga olib boriladi.

Avvalo, fazogirlar egiluvchan naychalar mahkamlangan rezinadan yasalgan, uzun ichki kiyimga o'xshash



maxsus kiyimni kiyadilar. Fazogirlarni sovitish uchun ushbu naychalar orqali suv yuboriladi, chunki tana harorati skafandrdan tashqariga chiqib keta olmaydi.

Skafandrning yuqori qismi egiluvchan qo'llarga ega, qattiq qobiqdan iborat. Bo'yin qismida joylashgan, dubulg'aga ulangan metall halqaga fazogir boshini kirgizadi, uning qo'llari esa qo'lqoplar mahkamlanadigan ikki metall halqa ichiga kiritiladi. Skafandrning bu qismi Yerda juda og'ir. U fazogirni kislorod zaxirasi, suv, sovitkichlar, sovitkichlarni harakatlantiruvchi batareyalar va ularni fazodagi sayr paytida tirik saqlashi uchun havo nasoslari bilan ta'minlaydi.

Keyin fazogirlar skafandrning pastki yarmini tortib kiyadilar. Pastki qism bitta bo'lakda: katta, qattiq etik tashqi tomondan izolyatsiya qilingan shimlarga ulangan.



Yerda fazogirlar bu shimda burilish uchun polga yotishlari kerak bo'lar edi. Fazoda esa ular havoda muallaq turib, suzib yurganicha, kiyim ichida bemaol harakatlanishlari mumkin.

Fazogirlar juftligi maxsus kiyimini kiygach, ulardan biri (fazo kemasi ichida qolgani) kostyumning qismlarini bir-biriga bog'lab qo'yishga yordam beradi.

Dubulg'alarni kiyishdan avval fazogirlar bir-birlari va boshqa ekipaj a'zolari bilan gaplashishlari uchun old qismdagi quloqchin va mikrofonlar ichiga joylashtirilgan radiosi bor maxsus kaskani kiyishadi. Nihoyat, fazogirlar dubulg'a va katta, noqulay maxsus qo'lqoplarni kiyishga tayyor. Ular kaskalarini to'g'rilaydilar va so'nggi marta burunlarini qashib oladilar. Chunki ular fazodagi sayr tugamaguncha bu ishni qila olmaydilar.





Yordam bergan fazogir havo shluzini tark etadi va lyukni yopadi. Ikkala fazogir o'zlarining qo'pol kiyimlari bilan kichik havo shluzi ichini deyarli egallab oladi. Skafandr ichidagi havo sekinlik bilan tashqariga so'rilib chiqquncha, fazogirlar bir necha daqiqa shluz ichida turadilar. Ular bosim o'lchagichning ichkarisidagi havo to'liq so'rib chiqarilishini kutadilar turadilar va quloqlari bitayotganini his qiladilar.

Nihoyat, lyuk eshigini ochib, ochiq fazoga chiqishlari mumkin.

Ular havo shluzidan chiqib ketishdan oldin maxsus kiyimlarni bir-biriga mahkamlash uchun ingichka simli ilgakdan foydalanadilar. Bu simli ilgaklar ularga fazo kemasidan uzoqlashib ketmaslikka yordam beradi.

### Fazo qo'ynida

Ochiq fazoda suzar ekan, fazogirlar tirik sun'iy yo'ldoshga aylanib, Yer kurrasi atrofida kekadilar. Ularga bir muddat fazo kemasi kerak bo'lmaydi, chunki ularning maxsus kiyimlari havo va batareyaning quvvatiga ega bo'lib, u ularni taxminan yetti soat davomida tirik saqlashi mumkin. Hatto har bir shlem ichida oziq-ovqat naychasi va suv sumkasi bor.

Ular fazo kemasining yuk tashish bo'lmasiga boradilar. Bu yerda fazoda sayr qilish uchun kerakli bo'lgan uskunalar katta maxsus qutida saqlanadi. Ular kerakli

uskunalarni olib, bel yoki tirsak sohaloriga bog'lab qo'yadilar.

Skafandrda ishlash oson emas. Fazogirning barmoqlari va qo'llari toliqadi, chunki har bir harakat kiyim ichkarisidan uning qismini nari itarish harakatini talab etadi.

Fazoda ma'lum vaqt bo'lgandan so'ng fazo kemasi ichida qolgan boshqa ekipaj a'zolarining oldiga qaytish vaqti kelganida, fazogirlar havo shluzi ichkarisiga kiradi. Ular charchagan bo'lishlariga qaramasdan, tashqi shluz eshigini yopishdan avval Yer va osmonga so'nggi marta nazar tashlaydilar.



1. Matnning asosiy mazmuni nimadan iborat?

- A) Nima sababdan fazogirlar birgalashib ishlashi haqida
- B) Fazo kemasi qanday ekani haqida
- D) Nima sababdan fazogirlar fazoda topshiriq bajarishlari haqida
- E) Ochiq fazoda ishlash qanday bo'lishi haqida

2. Fazogirlar fazo kemasidan tashqariga chiqishlarining sababi nima?

- A) Ta'mirlash ishlari uchun
- B) Yerni yaxshiroq ko'rishlari uchun
- D) Sovib olish uchun
- E) Sarguzasht izlash uchun





1. Matnga kirit, faqo kelmasi va Yerdə boʻlish orasida qanday farq bor?
2. Nima uchun fazogʻrilar fazoda boʻlganlarida maxsus kiyim kiyishlari kerak? Matnga asoslanib, ikkita sabab keltiring.
3. Nima sababdan fazogʻrilar fazoga chiqishlari uchun bir necha soat tayyorgarlik koʻrishlari kerak boʻladi?
4. Fazogʻrilar har doim ikki kishi boʻlib fazoga chiqishlarning sababini ayting.
5. Nima sababdan havo shifozida uchinchi fazogʻrining boʻlishi talab qilinadi?
6. Muallif "Fazogʻrilar birinchi marta burunlarini qashib otdi", degan jumlatni ishlatgan. Bunga sizning munosabatingiz qanday?

**Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt (ortak)**

1. Eitakdagi Shoh Anushirvon ov payti kimni uchratdi? U qanday ish bilan mashgʻul edi?
2. Chohing podshohni hayratda qoldirib, ming tanga inon qilishiga sabab boʻlgan javobini tuzin.
3. Choh ekayotgan daraxt qanday qilib uch marta hosil berdi?
4. Daraxt va togʻprik hayotda sizga nima foyda keltirgan haqida gapirib bering.



Tasavvur qiling, siz fazoga boʻlmogʻchisiz. Matndagi maʼlumotlardan foydalanib, fazoga boʻlishning sizga yiqilgan va yiqilmagan jhalarni fodalovchi misollar keltiring. Jaxtingizni asosing.

**Daraxt holati haqida maʼlumot**

№	Daraxtning oʻlchovi	Oʻzgarish	Daraxtning oʻsish surʼatining oʻzgarishi	Uch marta hosil bergan daraxt	Daraxt hosil berib turgan vaqtning uzunligi	Sizning fikringiz
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Daraxtning oʻsish va oʻlchov yili oxirida uni qaytarishda quyidagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi maʼzomlarga muvofiq toʻldiriladi

Yangi	Daraxtning oʻlchovi (m)	...
...	...	...
...	...	...
...	...	...
...	...	...

UO'K 808.545(075.3)  
KBK 74.202.5ya72  
T61

M.E.Toirova  
O'qish savodxonligi: umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun  
4-sinf uchun darslik. / M.E.Toirova – Toshkent: "Novda  
Edutainment", 2023. – 80 b.

# O'qish savodxonligi

## 4-sinf

### I qism

Umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"  
Toshkent – 2023

Muharrir	<i>M.I.Xujayeva</i>
Badiiy muharrir	<i>A.Sobitov</i>
Musahhih	<i>X.Serobov</i>
Rassomlar:	<i>E.Salyakhova, M.Azizova</i>
Kompyuterda sahifalovchi	<i>M.Zaimbetov</i>

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 02.07.2023-yilda original-maketdagi  
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli  
"Aria" gamitulasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Mashinada yangil bo'rtangan (Machine Finished Coated) 80 g/m<sup>2</sup> qog'oz.  
Shartli b.t. 5. Hisob-nashriyot t. 1,37.  
Adadi 608 859 nusxa. Buyurtma raqami 23-357.  
"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.